

**FOLKOR JANRLARNING SIVILIZATSIYASIDA AFSONA, RIVOYAT
VA NAQLLARNING O‘RNI VA ROLI**

Toirova Zubayda Omongaldiyevna
Urganch Ranch texnologiya universiteti
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor janrlarining eng taraqqiy etgan turlaridan biri afsona, rivoyat va naqlarning folklorshunoslikdagi roli haqida umumiy tushunchalar berilgan. Ushbu janrlar rivoji folklor ilmining janriy tarkibini boyishiga, ilmlarning rivojlanishiga olib keladi. Afsona, rivoyat, naqlar xalq og‘zaki janrlar genezisida ham ulkan ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: afsona, rivoyat, naql, genezis, an’anaviylik, milliy qadriyatlar, dostonnavislik an’anasi

Ma’naviyat kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so‘nggi lahzasigacha o‘zi mansub xalqning qadriyatlari, an’analari ichida ulg‘ayadi, kamol topadi. Hatto o‘zini folkloriga begona deb bilgan, bu atama ta’rifidan mutlaqo yiroq bo‘lgan kishi shu an’analar ichida ulg‘aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an’analari ta’sirida shakllangan bo‘ladi.

O‘zbek folklorining janrlar tarkibi – boyligi, xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Shu o‘rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo‘lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof, afsona, rivoyat, naql kabi faqat o‘zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zbek folklori janrlari xilma-xilligi ijodkorlarning faoliyati va ularning professionallashuvi bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, doston, ertak, og‘zaki drama, askiya kabi janrlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni, muayyan ustozdan ta’lim olishni talab etadi. Bu janrlar ijrosi maxsus maktablarning paydo bo‘lishini, ularning o‘z an’analari doirasida shakllanib rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbek folklorshunosligining yetuk olimlaridan biri akademik To‘ra Mirzayev: “Folklor an’analari hech qachon barham topmaydi. U har bir davr, zamon talabiga mos davom etadi. Folklor-etnografik jamoalar olib borayotgan faoliyat, o‘zbek baxshichilik san’ati an’alarining yosh ijrochilari jonli an’alarning, yosh ijrochilarni jonli ijroda yaratilayotgan xalq an’analari, paremiologik janr namunalari ana shunday axborot texnologiyalari yuksalgan paytdagi ko‘rinishidir”– deganlarida haq edilar.[4. 368]

Afsona va rivoyat janrlarining o‘ziga xos hamda mushtarak jihatlari, afsonalar tasnifi, mifologik, tarixiy va toponimik afsonalarda hayotiy voqelik haqidagi axborotning epik talqin qilinishi, mifologik afsonalarning obrazlar talqini va qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liqligi kabi masalalar K.Imomov tadqiqotlarida keng yoritilgan. 80-yillardan boshlab o‘zbek marosim folklori B.Sarimsoqov tomonidan o‘rganila boshlangan. Olim o‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, tasnifi, genezisi va tarixiy taraqqiyoti, o‘zbek oilaviymaishiy marosimlar folklori, mavsumiy marosimlar folklori, so‘z magiyasiga aloqador badik, kinna, olqish va qarg‘ish kabi janrlarni tadqiq etgan. Marosim folklorini tipologik aspektida o‘rgangan B.Sarimsoqov o‘zining bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarini “O‘zbek marosim folklori” (1986) nomli monografiyasida umumlashtirgan. Mazkur asarning ilmiy qimmatini shundan iboratki, unda “marosim” va “marosim folklori” tushunchalarining mohiyati oydinlashtirilgan, o‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi bir necha mezonlar asosida izchil tasniflangan. “Yas-yusun”, “Oblo Baraka”, “Shox moylar”, “Lola sayli”, “Loy tutish”, shamol chaqirish va yong‘ir yog‘dirish bilan bog‘liq marosimi folklor namunalari, so‘z magiyasiga asoslangan badik va kinna janrlari tadqiq etilgan.[1.173]

Afsona forscha so‘zdan olingan bo‘lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan nasriy hikoyalarni bildiradi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biridir.

Rivoyat hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida tasvirlovchi og‘zaki ijod janridir. Rivoyatlar afsonalardan haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi. Rivoyatlarda aniq tarixiy voqealarning ildizi mavjud bo‘ladi.

Afsona va rivoyatlar o‘zbek folklorida ham qadimiy janrlardan hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida sav so‘zining quyidagi ma‘nolarini keltirgan: sav - otalar so‘zi; sav - qissa, qadimgi voqealardan xabar berish, aytish; sav - hikoya, biror voqeani aytib berish; sav - risola, kichik kitobcha; sav – so‘z, nutq; sav – ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi. Shu bilan birga “hikoyalarda faqat o‘tganlar haqida aytilishi shart emas”, deb uqtiradi. Demak, qadimda afsona va rivoyat atamasi o‘rnida sav so‘zi ishlatilgan. Mifologik afsonalarning Xizr nomi bilan bog‘liq namunalari ham xalqimiz orasida juda ko‘p tarqalgan. Ularda hikoya qilinishicha, Hasti Xizr cho‘l piyri, hosildorlik homiysi, sehr-jodu kuchiga ega bo‘lgan o‘lim bilmas, zarb o‘tmas, o‘tda yonmas afsonaviy qahramon sifatida tasvirlanadi. Iskandar Zulqarnayn Xizr va Ilyos payg‘ambarlar bilan birgalikda umriboqiylik baxsh etuvchi obi hayot mavjud quduqqa boradilar. Bu suvdan Iskandar ichib ulgurmaydi, Xizr va Ilyos payg‘ambarlar bu suvdan ichib o‘lim bilmas xislatga ega bo‘ladilar. O‘shandan buyon ular dunyoni kezib

yurishadi. Xizr alayhissalom quruqlikda, llyos payg‘ambar esa suvda yo‘lovchilarga berishadi. [2.34]

Xalqimiz orasida tarqalgan afsonalarning katta qismi tarixiy voqea va hodisalar haqida bitilgan. Jumladan, “Devqal’a”, “Shirin qiz”, “Kaltaminor”, “Ilonbuzgan” kabi afsonalarni keltirishimiz mumkin. Bu afsonalar ma’lum bir tarixiy joylar, qal’alar haqida yaratilgan bo‘lsa-da, ularning syujetini ko‘proq hayoliy epizodlar tashkil qiladi. [3.531]

Afsona matnida an’anaviylik yo‘q ekan, voqealar tuzilishi ham murakkab emas. Shuning uchun aytuvchining mahorati bilan bog‘liq holda voqealar doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Afsona syujetlari mifologik hodisalar, geografik joylar nomi bilan bog‘liq g‘aroyib voqealardan tashkil topgan. Xarakterli tomoni shundaki, deyarli barcha afsonalarning syujeti bir yoki ikki epizoddan tashkil topadi. Syujet voqealari esa ko‘proq tugundan boshlanadi. Bunday epik tugunlar esa tinglovchilarni kutilmaganda voqealar ichiga olib kiradi. Afsonalarda ertaklardagiga o‘xshash an’anaviy boshlama va tugallamalar uchramaydi. Bu narsa faqat afsona aytish bilan shug‘ullanuvchi professional ijodkorning yo‘qligi bilan izohlanadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, afsona keng ommaviy ijro etiluvchi janr hisoblanadi – buni bilgan shaxs o‘zi istagan shaklda aytaveradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan, bashariyat xotirasida chuqur joy egallagan rivoyat va afsonalarning o‘rni, ayniqsa, san’at va adabiyot uchun misli beqiyosdir. Dostonnavislar, dramatik va lirik ijodkorlar, rassom u haykaltaroshlar hattoki, rejissorlar ham o‘z ijodiy ishlarida ushbu qadimiy ma’naviy boylikdan foydalib yuksak darajadagi asarlarni yaratishga muvaffaq bo‘lishdi va bu an’ana hozir ham davom etib kelmoqda. Mif va mifologik qarashlarning inson ongiga ta’siri juda kuchli bo‘lib, uni o‘ziga mahliyo qilib qo‘yadi va fantastik olamga sayohat qilishini ta’minlagan holda ma’naviy ozuqa beradi. Shuning bilan bir qatorda biror bir shaxsning bolalikdagi orzulari va sehri olamga hayolan tashrif buyurishiga sababchi bo‘lsa, yana kimningdir yangi orzular sari qahramonlarcha harakat qilib maqsadga erishishiga bevosita ko‘mak beradi va motivatsiyasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1 Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990, 169-173 b.
2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T., 2009. 34-bet.
3. Regina F Bendex and Galit Hasan- Rokem. A Companions to Folklore. – Oxford; Blackwell Publishing, 2012 (UK). 531 p.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -T. “Musiqqa”, 2010, 368-bet